

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HARBIY KAFEDRASI

«Himoyaga ruhsat etilsin»
Harbiy kafedra boshlig‘i
podpolkovnik. _____ L.Davirov
« ____ » _____ 2016 yil.

5111500 – «Chaqiriqqacha harbiy ta’lim» ta’lim yo’nalishi
4- kurs 401 guruh talabasi

Shodiyev Alijon Shodmonovichning

Ta’lim muassasalarida «Fuqarolar himoyaasi» bo‘limi mashg‘ulotlarini o‘qitish
metodikasi (YOCHQBT dasturi bo‘yicha)
mavzusida yozilgan

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

_____ talaba Shodiyev A.Sh.
Ilmiy rahbar: podpolkovnik
_____ Mirzaliev Z.R.

«Himoyaga tavsiya etilsin»
_____ sikl boshlig‘i
« ____ » _____ 2016 yil.

Toshkent–2016

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I-BOB	Ta’lim muassasalarida «fuqarolar himoyaasi» bo’limi mashg’ulotlarini tashkil etishning istiqbolli yo’llari.....	6
1.1.	Respublikamiz xududida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarning mazmun va mohiyati.....	6
1.2.	Tabiiy xususiyatli favqulodda aziyatlar.....	14
II-BOB	TA’LIM MUASSASALARIDA «FUQAROLAR HIMOYAASI» BO’LIMI MASHG’ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	21
2.1.	Fuqaro muhofazasi mashg’ulotlarini o’tkazish metodikasi....	21
2.2.	Nazorat darslarni o’tkazish va uni tashkil qilish metodikasi...	26
2.3.	Ta’lim muassasalarida «fuqarolar himoyaasi» bo’lim mashg’ulotlarini tashkil etishda reja konspekt tuzish.....	30
III-BOB	TAJIRIBA SINOV ISHLARINING SHART – SHAROITLARI VA MAZMUNI.....	42
3.1.	Tajriba-sinov ishlarining nazariy mazmuni.....	42
3.2.	Tajriba sinov ishlarining tahlili.....	46
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	48
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	49

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz geografik jihatdan shunday bir mintaqada joylashganki tabiatning biror – bir turdagi injiqliklari bu o‘lkani chetlab o‘tmagan. Jumladan, tabiiy hodisalardan – er qimirlashlar, siljishlar, o‘pirilishlar, qor ko‘chkilari, kuchli yog‘ingarchiliklar, dovullar va boshqa fojiali oqibatga olib kelish mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar mintaqamizda bo‘lib turadi. Respublikamiz Prezidenta Islom Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida umumiy xavfsizlikni va barqaror rivojlanishni ta’minlash muammolarini batafsil » ochib berib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash va uni boshqarishda amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan ishlarga oqilona yondoshishni qayta —qayta ta’kidlab o‘tgan.

Insoniyat yaralibdiki, u tabiatning lazzatlaridan baxramand bo‘lish bilan bir qatorda u keltirgan turli xil talofatlarga qarshi kurashib kelgan. Lekin hamma vaqt ham ularning oldini olib bo‘lmasligini yaxshi bilamiz. Yashash sharoiti yaxshilanib borishi bilan inson endi faqat o‘zinigina emas, balki farovon hayoti uchun zarur bo‘lgan uy-joylar, zavod-fabrikalar, korxona va muassasalar, idoralar, madaniy xordiq chiqarish binolari, mol-mulk, oziq- ovqat, xom-ashyo va boshqa boyliklarni ham tabiat etkazgan yoki etkazishi mumkin bo‘lgan zararlardangina emas, balki o‘z qo‘li bilan yaratgan ajal urug‘laridan (ommaviy qirg‘in qurollaridan) ham himoya qilish zaruriyati tug‘ildi.

Yuqorida nomlari aytib o‘tilgan boyliklar bir kunning o‘zida paydo bo‘lgani yo‘q, balki bular insoniyatning ko‘p ming yillik mehnatlari, intilish va izlanishlari mevasidir.

Ayniqsa inson XX asrda o‘z qo‘li bilan yaratgan yadroviy, kimyoviy, biologik hamda oddiy urush qurollari bilan er sharini bir necha marotaba yo‘q qilib yuborilishi havfi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng katta falokatdir. Ushbu falokatning insoniyat uchun havfini chuqurroq tushunish uchun o‘tgan asrning 1945 yilida Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan Yaponiya davlatining Xirosima

va Nagasaki shaharlariga tashlangan bugungi yadro bombalariga nisbatan zarraday keladigan yadro bombalari bir necha yuz minglab odamlarning yostig'ini bir daqiqadayoq quritgani etmaganday, uning asorati oradan salkam oltmish yil o'tganiga qaramay hali-xamon saqlanib kelayotganini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda fan va texnikaning keng rivojlanishi xalq xo'jaligida ham inson hayoti uchun havfli bo'lgan zaharli moddalardan (xlor, ammiak kabi), yadro reaktorlaridan tinchlik yo'lida foydalanish imkonini berdi. Lekin bulardan foydalanishda inson omili rol o'ynar ekan, hamma vaqt ham bexato ish bo'lavermasligining isbotini ko'plab keltirish mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida 1985 yilda Ukrainaning Chernobil shahridagi atom elektrostansiyasi reaktorlarining biri ishdan chiqqani va atmosferaga katta miqdorda radiatsiyaning tarqalishi oqibatida minglab odamlar qurbon bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz. Xattoki Ukrainadan bir necha ming kilometr uzoqlikda joylashgan Angliya davlatining Premier-Ministri M. Tetcher ham butun dunyoga ovoza solgan ekan, - «Ukrainada sodir bo'lgan falokat oqibatlari Angliya fuqarolarida ham o'z aksini topayapti, ko'plab odamlarimiz nurlanish kasalligiga chalinmoqda...», - deb.

Shunday ekan, hech qaysi davlat, hech qaysi yurt tabiiy ofat, falokat va xalokatlar havfidan xoli emas. Bu degani demak, baribir ofatu-falokatlardan qutulishning imkoni yo'q ekan deb qo'l qovushtirib o'tirish emas, balki hayot uchun kurashish zarur demakdir.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz bitiruv malakauiy ishimizning mavzusini **«Ta'lim muassasalarida «Fuqarolar himoyaasi» bo'limi mashg'ulotlarini o'qitish metodikasi (YOCHQBT dasturi bo'yicha)»** deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: - Ta'lim muassasalarida «Fuqarolar himoyaasi» bo'limi mashg'ulotlarini o'qitishni takomillashtirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: - «Fuqarolar himoyaasi» bo'limi mashg'ulotlarini o'qitishni tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: «Fuqarolar himoyaasi» bo‘limi mashg‘ulotlarini o‘qitishni tashkil etish va shakllantirishning mazmuni va metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi. «Fuqarolar himoyaasi» bo‘limi mashg‘ulotlarini o‘qitishni tashkil etish va amalga oshirish usullari samarali bo‘ladiki» Agar:

- «Fuqarolar himoyaasi» bo‘limi mashg‘ulotlarini o‘qitishni tashkil etish va amalga oshirishning asosiy shartlari aniqlansa;
- «Fuqarolar himoyaasi» bo‘limi mashg‘ulotlarini o‘qitishni tashkil etish va amalga oshirish usullarini shakllantirish mashg‘ulotlardagi xolatlarni nazarda tutgan holda amalga oshirilsa;
- mashg‘ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish usullari o‘quv yurtida shakllantirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uning o‘ziga xos omillari, metodlari aniqlansa.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: va ilmiy faraziga muvofiq quyidagi vazifalar hal etildi:

1. Respublikamiz xududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning turlari;
2. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar;
3. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar;
4. Fuqaro muhofazasi mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi;
5. Nazorat darslarni o‘tkazish va uni tashkil qilish metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tuzilishi va hajmi: kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati iborat.

**I-BOB. TA'LIM MUASSASALARIDA «FUQAROLAR HIMOYAASI»
BO'LIMI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING
ISTIQBOLLI YO'LLARI**

**1.1. Respublikamiz xududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda
vaziyatlarning mazmun va mohiyati**

Favqulodda vaziyat (FV) – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof – tabiiy muxit zarar ko'rishiga, anchagina moddiy talofotga va insonlarning xayot faoliyati izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, xalokat, xavfli tabiat xodisasi, tabiiy va boshqa ofat oqibatida muayyan xududda yuzaga kelgan sharoit, albbatta bunday sharoitni yuzaga kelishida tabiiy, texnogen, ekologik, xarbiy va ijtimoiy sabablar aloxida o'rin egallaydi. SHu bilan birga favqulodda vaziyat qamrab olgan xududning ko'lami, etkazilgan moddiy zararining miqdori ham turli xil bo'ladi.Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkaziladigan va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfini iloji boricha maksimal darajada kamaytirishga, shuningdek bunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda odamlar sog'lig'ini saqlab qolishga, atrof tabiiy muxitga etadigan zarar va moddiy talofat miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi. Bunday tadbirlar favqulodda vaziyatning turlariga muvofiq turli ilmiy va ishlab chiqarish tashilotlari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda ko'pgina davlatlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bashoratlash tadbirlariga katta –katta mablag'lar sarf qilinmoqda. Bu esa yuz berishi mumkin bo'lgan xavfni oldini olishga, eng muximi insonlar salomatligini saqlashga, atrof muxitga jiddiy zarar etishini oldi olinishiga olib keladi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish – favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda o'tkaziladigan hamda odailar xayoti va sog'lig'ini saqlab qoliga, atrof tabiiy muxitga etadigan zarar va moddiy talofat miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyat zonalarini cheklash va xavfli omillar ta'sirini to'xtatishga qaratilgan avariya – qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar kompleksi.

Insonning xayoti turli ofatu - falokatlardan to'liq kafolatlanmaganligi xammaga ayondir. SHunday ekan, u yoki bu xususiyatga mansub bo'lgan favqulodda vaziyat sodir bo'lganda, uning oqibatida yuzaga kelgan talofatlarni albatta bartaraf etish lozim. Respublikamizda bunday vazifalarni ado etuvchi maxsus bo'linmalar mavjud. Bu bo'linmalar favqulodda vaziyatning turiga qarab doimiy shay xolatdadir. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyat o'chog'iga birinchi bo'lib aynan shu bo'linma mutaxassislari etib kelishadi (bu haqda 4.1 bo'limida ma'lumot buriladi).

1.1.1. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar

Tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishida xavfli geologik jarayon va hodisalar muhim ahamiyatga ega, shuning uchun ularning falokatli oqibatlar aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish; xavfli geologik hodisalarning yuzaga kelish sabablari fazoviy tarqalish qonuniyatlari o'rganiladi, baholanadi bashorat qilinadi, ularga qarshi har xil chora tadbirlar ishlab chiqiladi.

Er yuzasida sodir bo'ladigan xavfli geologik jarayon asosan erning ichki kuchlari va tashqi tabiiy omillari ta'sirida bo'ladi. Bundan tashqari ilmiy-texnik va maxsus adabiyotlarda bayon etilgan ma'lumotlarga ko'ra geologik muhitga insonning xo'jalik, qurilish hamda harbiy holatlarda olib boriladigan harakatlari ham ta'sir etadi, natijada ko'lamli katta yoki kichik bo'lgan turli xilda ofatlar vujudga keladi.

Zilzilaning kelib chiqishi sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari.

Insoniyat tarixida yuzlarcha halokatli zilzilalar bo'lib o'tgani yozma manbalardan ma'lum. Yunonistondagi qadimgi Pompey xarobalari shundan dalolat beradi. Olimlar ummon tubidan ko'plab qadimiy shaharlar xarobalarini topishgan. Hozirgi Issiqko'l qirg'oqlari bo'ylab ham ko'hna davr inshootlari, saroylari va qasrlarning qoldiqlari hamon saqlanib, o'sha qadimiy er silkinishlari-guvovulik berib turibdi. Oxirgi 50 yil ichida bo'lib o'tgan zilzilalar ichida vayronagarchilik va qurbonlar miqyosiga ko'ra Chili, San-Fransisko, Tokio, Ashxabod va Spitak, Toshkentdagi va boshqalar ajralib turadi. 1948 yilga , (100 ming odam halok bo'lgan, 8 - 9 ball) zilzilasi keyini eng dahshatli fojia Spitak zilzilasi nomini (unda ming odam

halok bo'lgan) oldi. U 1988 yili 7 dekabr kuni sodir bo'ldi. Dastlabki kuchli silkinishning o'zida 20 mingli Spitak shahri va uning atrofidagi bir necha qishloqlar yakson bo'ldi. 200 mingli Leninakan shahri zamonaviy binolarining yarmidan ko'pi quladi yoki tiklab bo'lmaydigan ahvolga keldi. 120 mingli sanoat markazi bo'lgan Kirovakan shahri va katga qishloqlar talafot topdi. San-Fransiskoda 1906 yil 18 apreldagi er qimirlashida 700 aholi halok bo'lgan. Moddiy ziyon 1,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Ikki kun yong'in mobaynida 500ga yaqin kvartallar yonib, hech narsa qolmagan, hammasi bo'lib 350 ming kishi halokatga uchragan.

Yaponiyada 1995 yil 17 yanvarda kuchli er qimirlashi ro'y bergan. Uning epitsentri yirik Koba portining markazida joylashgan bo'lib juda katta ko'lamda muhandislik va kommunal inshootlarning vayron bo'lishiga, uy-joylarni buzilishiga olib kelgan. Bu ofat natijasida uylarning buzilgan bo'laklari ostida 5 ming odam nobud bo'lgan va 500 ming oila uy-joysiz qolgan. 1995 yil 27 mayda Rossiya davlatining Neftegorsk shahrida 9,2ball kuchlanishga ega bo'lgan o'ta kuchli er silkinishi ro'y berdi. Ma'lumotlarga ko'ra uning natijasida shahardagi 95 foizdan oshiq inshootlar vayron bo'lgan va 1841 fuqaro nobud bo'lgan.

Eng kuchli zilzila O'zbekistonda 1902 yilda (8-9 balli Andijonda bo'lgan. 1946 yilda Namanganda (Chotqol zilzilasi nomi bilan), Toshkentda 1868 va 1966 yy. (7-8 ball) (1000 martagacha), Gazlida 8-10 ball, Tojikistonda 1907 y., Xisorda 9-10 ball, 15ga yaqin qishloqla xonavayron bo'lgan, 1000 ga yaqin odam nobud bo'lgan. 1911 yilda Pomirda Sarez zilzilasi, tog' o'pirilib, Usoy degan to'g'on hosil qilgan. Murxob daryosini to'sib qolib, Sarez degan ko'l paydo bo'lgan.

Bu vayronagarchiliklarning shunchalik kattaligiga sabablar nima? Birinchi navbatda zilzilaning paydo bo'lishidagi er qobig'idagi ichki kuchlarning ta'siri, ularning er yuzasidagi inshootlarga ko'rsatgan zarbasining kuchi, ikkinchi navbatda uy-joy binolarini, korxonalarni, inshootlarni qurilish ishlarining sifatsiz olib borilgani, zilzilaga bardosh beradigan qilib qurilmagani, ularni loyihalash va qurishda yo'l qo'yilgan xatoliklar hamda nazoratga kam e'tib berilganidadir. Zilzila paytida er qobig'ida seysmik to'lqinlar hosil bo'ladi. To'lqinlarning

tarqalish markazi gipotsentr yoki zilzila o'chog'i deb ataladi. Chuqurligi 2-70 km ga borgan er yuzasidagi markazi epitsentr deb ataladi. Ma'lumotlarga ko'ra seysmik to'lqinlar uch xil – bo'ylama, ko'ndalang, yuzama turlarga bo'linadi.

Respublikamizda va juda ko'p davlatlarda zilzila kuchi 12 balli shkala asosida baholanib, har bir ballga ega bo'lgan zilzila o'z tafsilotiga ega. Bundan tashqari baholashda 8 balli Rixter seysmik shkalasidan ham foydalanadi. Bizda asosan 2 turdagi er qimirlashi kuzatilgan:

- uzoq davrli 1,5-2,5 daqiqa davom etadigan;

- yuqori chastota tebranishli 1,5-2,5 soniya davom etadigandir.

Quyida shu nisbiy seysmik shkalani ba'zi o'zgarishlar bilan bayon etamiz:

1ball - Sezilarsiz - Faqatgina seysmik asboblargina qayd qiladi.

2ball - Juda kuchsiz - Uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar biishi mumkin (deraza oynalari titraydi).

3ball - Kuchsiz - ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq havoda tinch turgan odam sezishi mumkin, Osilgan jismlar asta tebranadi.

4 ball - O'rtacha sezilarli. Ochiq havoda turgan odamlar bino ichidagi kishilar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi.

5 ball - Ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi. Ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishdagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi.

6 ball - Kuchli. Xamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi Ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi, uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidan kitoblar,javonlardagi idishlar ag'darilib tushadi.

7ball - Juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi,ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari tomonidan harakat vaqtida ham seziladi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, hovzalardagi suvlar chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball. - Emiruvchi. Xom g'ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayron bo'ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi

mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqilib tushadi, sinadi, tog'lik joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball - Vayron qiluvchi. Er qimirlashga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi, poydevorlaridan siljib, qiyshayib qolishi mumkin. Oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, er osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - YAkson qiluvchi. Hamma imoratlar katta shikast ko'radi. Temir yo'l relslari to'lqinsimon shaklga kiradi bir tomonga qarab egilib qoladi, er osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, cho'kish hodisalari yuz beradi, havzalari to'lqinlanib qirg'oqqa uriladi, qoyali bag'irlarda katta-katta surilish hodisalari sodir bo'ladi.

11 ball - Fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron bo'ladi, to'g'on va dambalar yorilib ketadi, temir yo'llar butunlay ishdan chiqadi, erning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, er ostidan loyqa balchiqlar ko'tarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga etadi.

12 ball- Kuchli fojiali Erning ustki qismida katta o'zgarishlar yuz beradi. Inson barpo etgan hamma imoratlar butunlay vayron bo'ladi, daryolarning o'zani o'zgarib shar-sharalar paydo bo'ladi, tabiiy to'g'onlar vujudga keladi.

Ko'chkilar. Ko'chkilararo umumiy tushunchalar, kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari. Tabiiy favqulodda vaziyat turlaridan yana biri ko'chki bo'lib, o'rganish, baholash, bashorat qilish va undan aholini va xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish mamlakat iqtisodini ko'tarishda muhim hisoblanadi. Dengiz, soylar va tog' yonbag'irlarida joylashgan bo'sh tog' jinslari ustki qismining er ustki va ostki suvlari hamda o'zlari og'irlik kuchi ta'sirida pastga qarab harakat qilish hodisasi ko'chki deyiladi. Ko'chkilar Qrim, Kavkaz, Volga bo'yida, Markaziy Osiyoning tog'lik rayonlarida tez-tez bo'lib keyingi 15 yil ichida O'zbekistonning kon sanoati rivojlangan Ohangaron, Olmaliq, Oltintopkan, Yuqori Chirchiq tumanlaridagi ,xumson, bog'iston, Xo'jaken Chibarg'ota va boshqa qishlokdarda, Surxondaryo, Qashqadaryo Samarqand, Jizzax viloyatlarining tog'li hududlarida ko'plab ko'chki hodisalari ro'y bermokda.

1911 yilda gʻarbiy Pomirda 9 balli zilzila natijasida Usoy koʻchkisi hosil boʻlgan. Mugʻrob daryosi vodiysiga 2,2 m keladigan togʻ jinsi boʻlagi koʻchib, 2,5 km masof bosib oʻgib daryo oʻzanini 450-500 m qalinlikda, 2 km uzunlikda 1 km kenglikda qumtosh, ohaktosh, gips va boshqa jins tashkil topgan togʻ toʻsib qoʻygan. Talafot natijasida uylar Qishloqlari koʻchki ostida qolib 54 kishi nobud boʻlgan.

1973-1975 yillarda respublikamizning Ohangaron vodiysida asrimizning eng katta koʻchkisi «Atchi koʻchkisi» sodir boʻlgan. Koʻchkining hajmi 700 mln. m³, satxi 12 qalinligi 80-170 m boʻlib, 1975 yildan beri koʻchayotir. Hosil boʻlish sababi - Ohangaron daryosining chap qirgʻoridagi 130 m chuqurlikdagi koʻmir qatlamlaridagi oʻzgarish natijasida koʻmir yonib gazga aylangan va boʻshliq paydo boʻlgan, uning oqibatida koʻchki vujudga kelgan.

Tojikistonning Hisor rayonining Sharora qishlogʻida 25 yanvarda katta koʻchish roʻy bergan. Koʻchkining kengligi 400 m, uzunligi 4,5 km, qalinligi 7 — 8 metrni tashkil qilgan. Natijada 50 ta uy koʻmilib qolgan, 207 kishi halok boʻlgan..

Koʻchkiga qarshi koʻriladigan chora-tadbirlar passiv va aktiv xillarga boʻlinadi.

Passiv choralar profilaktik ahamiyatga ega boʻlib, koʻchki yonbagʻrida va zonasida quyidagi ishlar bajarilishini man etadi:

- 1) yonbagʻirlikni qirqish va tekislash;
- 2) imorat va inshootlar qurish;
- 3) portlatish ishlari;
- 4) kon qazish;
- 5) ogʻir yukli transportning katta tezlikda harakat qilishi;
- 6) daraxtlarni rejasiz qirqish;
- 7) erlarni sugʻorish;
- 8) oqava, buloq suvlarini oqizish va h.k.

Yuqorida qayd qilingan chora-tadbirlarning mustahkamligini oshirish hamda koʻchki hodisasini maʼlum bir davrga toʻxtatib turish uchun bajariladi. Aktiv choralarga yonbagʻirlardagi koʻchkiga moyil boʻlgan togʻ jinslarining harakatini toʻxtatish maqsadida inshootlar qurish togʻ jinslarining mustahkamligini oshirish

uchun maxsus chora-tadbirlar ko'rish kiradi. Bunday chora-tadbirlar ko'rish to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) ko'chkini keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash va yo'q qilish;
- 2) ko'chkiga moyil bo'lgan jinslarni ushlab turadigan inshootlar qurish;
- 3) jinslarning ko'chishga qarshiligini kuchaytirish uchun ularning mustahkamligini sun'iy yo'l bilan oshirish;
- 4) ko'chuvchan massani yonbag'irlikdan butunlay olib tashlash.

Birinchi guruhga taalluqli chora-tadbirlarga dengiz va daryo qirg'oqlarning namlanishi va yuvilishining oldini olish kiradi. Buning uchun ko'chish ehtimoli bor bo'lgan beton plitalar yotqiziladi, to'lqinlarni qaytaradigan va so'ndiradigan qurilmalar o'rnatiladi.

Er usti suvlarining ko'chuvchan jinslarga singishi oldini olish uchun har xil qurilmalar yasab, ularni bir yo'nalishda oqizish, er yuzasidan filtratsiyani kamaytirish uchun uni nishablash, gil-beton, shlak, bitum, asfalt, yotqizish lozim bo'ladi.

Ko'chuvchan massaning og'irligini kamaytirish, er suvlari sathini pasaytirish, erroziya hodisasining rivojlanishini kamaytirish yoki butunlay yo'qotish maqsadida yopiq yoki ochiq zovurlar qaziladi, ulardan er osti va usti suvlarini yig'ish hamda ularni relefni pastki qismlariga oqizish uchun foydalaniladi.

Ikkinchi guruhga kiradigan chora - tadbirlarga tirgak devorlar, ustun qoziqlar va kontrbanketlar qurish kiradi. Ko'chadigan massani tutib turish uchun ko'chki tekisligiga nisbatan chuqurroq qilib tirgovuch devor o'rnatiladi. Er osti suvlari chiqib ketishi uchun devor tagidan zovur qaziladi. Ustun qoziqlar temirbeton, temir va yog'ochlardan tayyorlangan bo'lib, oldindan qazilgan burg'u quduqlariga tushiriladi, qoziklarning pastki yonbag'irning turg'un qismigacha tushiriladi va u ko'chadigan massani ushlab turadi.

Kontrbanketlar yonbag'irning nishabligi kichik bo'lgan taqdirda ko'chadigan massani ushlab turish uchun ishlatiladi. Buning uchun yonbag'irlikdagi do'ng

joylar tekislash chiqqan gruntlar uning etak qismiga yotqiziladi va ko'chadigan massani ushlab turadigan devor hosil qilinadi.

Uchinchi guruhga taalluqli chora-tadbirlarga ko'chadigan jinslarning mustahkamligini va yopishqoqligini shu yo'l bilan oshirish kiradi. Buning uchun tog' jinslari silikatlanadi, sementlanadi, bitumlanadi va kimyoviy ishlov beriladi. Bunday ishlar zarur bo'lgan hollarda ko'chadigan massaning ayrim uchastkasida bajariladi. uchastka ko'chish qiyaligida suv o'tkazmaydigan ekranlar tirgovuch devor vazifasini ham o'tashi mumkin.

To'rtinchi guruhga kiruvchi tadbirlar - ko'chadigan massani yonbag'irdan butunlay olib tashlashdan iborat suriladigan massaning qalinligi va katta – kichik qoyasi qazib olib tashlash mumkin, bu ishni bajarishda buldozerlardan foydalaniladi.

Selning kelib chiqish sabablari va halokatli oqibatlari.

Tog' xududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorliklarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'irlarida nuragan, tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka qarab oqizib tushirilishiga sel hodisasi deb yuritiladi

Sel - arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi.

Sel oqimlari o'zi bilan olib ketayotgan qattiq zarrachalari o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;
- aralash sellar.

5.Qor ko'chkisi, kelib chiqish sabablari va falokatli oqibatlari.

Tog'larning tik yonbag'irlaridan qor massasining ag'darilib yoki sirpanib tushishi qor ko'chkilari deb ataladi.

Baland tog'larning ustiga qish faslida ko'p qor yog'ib, uning qalinligi oshadi. O'z og'irlik kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib yonbag'irlikda pastga qarab osilib turadi va qalinligi oshgan sari turg'unligi susayib kuchli shamol yoki

biror kuchli tovushdan hosil havo tebranishi ta'sirida qalin qor massasi harakatga kelib yonbag'irdan pastga qarab siljiy boshlaydi yoki ag'darilib tushadi

1.2. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar

Gidrotexnika inshootdagi favqulodda vaziyat - muayyan hududdagi avariya olib kelishi mumkin bo'lgan, shuningdek gidrotexnika inshootining avariya natijasida vujudga kelgan bo'lib, odamlar qurbon bo'lishiga, odamlar sog'lig'iga atrof tabiiy muhitga zarar etkazilishiga olib kelgan vaziyatdir.

Suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidrotexnika inshootining (GTI) buzilishi, baland tog' ko'llarining urib ketishi natijasida suv bosishi, avariya va halokatlarga olib keladi hamda odamlar qurbon bo'lishiga, va qishloq xo'jalik ob'ektlari ishining izdan chiqishiga, suv bosgan zonadagi aholining hayotiy faoliyati buzilishiga sabab bo'ladi va shoshilinch evakuatsiya tadbirlari o'tkazishni talab qiladi. Respublikamizda gidrodinamik xavfli ob'ektlar (GXO) juda ko'p bo'lib, ular aholi va hududlar uchun xavf-xatar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda favqulodda vaziyat o'chog'iga aylanib ketishi mumkin.

Gidrotexnika inshootlarining turlari:

1. Qaerdaligiga qarab:

- er usti (daryo, ko'l, kanal va x..k.) inshootlari;
- er osti (o'tkazgich quvurlar, tunnellar va x..k.) inshootlari.

2. Foydalanish xarakteri va maqsadiga qarab:

- suv-energetika inshootlari;
- suv ta'minoti inshootlari;
- sug'orish inshootlari;
- oqava chiqindi suvlar chiqarish inshootlari;
- suv-transport inshootlari;
- baliq xo'jaligi inshootlari;
- sport inshootlari;
- bezak inshootlari va h.k.

3.funksional vazifasiga qarab:

GES va boshqa GTIning suv bo'g'ish inshootlari (to'g'onlar, ko'tarmalar); suv oqish (suv o'tkazgich) inshootlari: kanallar, tunnellar, quvur o'tkazgichlar; tarnovlar, suv tashlamalar, osma quvurlar, shlyuzlar va h.k.

- tashlandiq suv inshootlari (orticha suvni chiqarish uchun) o'zan inshootlari, qirg'ok, inshootlari, yuza inshootlar, chuqur inshootlar va h.k.

- tartiblash (to'g'rilash) inshootlari - suv oqib ketishi sharoitini hamda daryolar o'zani va qirg'oqlarini muhofaza qilish sharoitini yaxshilash uchun: ko'tarmalar, g'ovlar, qirg'oq mahkamlagichlar va h.k.

- baliq xo'jaligi inshootlari - baliq o'tkazish va baliq boqish uchun.

Har bir GTI da gidrotexnik qulf, ventil, g'ov, surma to'siq va h.k. singari maxsus uskuna-jihozlar va turli qurilmalar bo'ladi.

Bir qancha vazifalarni bajarishga mo'ljallanib, bir butun qilib birlashtirilgan GTI majmui gidrouzellar deb ataladi.

Gidrotexnika inshootlari:

1. Xavfli tabiat hodisalari - tabiiy ofatlar (zilzila, ko'chki, yuvib ketish, jala va x.k.).
2. Uskunalarining tabiiy eyilishi va eskirishi
3. Loyihalash va qurishdagi xatolar.
4. Ishlatish qoidalarining buzilishi.
5. Portlatishlar (jangovar harakatlar, terroristik ishlar va h.k.) natijasida buzilishi mumkin.

GTI dagi xarakterli avariylar:

1. To'g'on teshilishi - to'g'on tanasida kichkina teshik hosil bo'lishi.
2. To'g'onning buzilishi.
3. To'g'onning yuvilib ketishi.

Ko'لامي va xarakteri qandayligiga qarab:

1. To'g'on buzilgandagi toshqin - suvning bir qismi to'g'ondan o'tib ketishi.
2. Suv bosishi - xududning asta-sekin suv ostida qolishi.
3. Halokatli suv bosishi - to'g'on buzilib, uni urib ketgan suv xududni shiddat bilan tez qoplab ketishi va toshqin sodir bo'lishi mumkin.

Shikastlovchi omillar va ko'rsatgichlar:

1. To'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi - 2-20 tezligi 3-100 km/soat.
2. To'g'onni urib ketgan to'lqin cho'qisi va old tomoning etib kelish vaqti (to'lqin tezligiga va joyning qancha oraliqda ekaniga qarab).
3. Suv bosish zonasining chegaralari (er yuzasi reliefi qandayligiga qarab).
4. Suv bosishining maksimal va amaldagi chuqurligi reliefning qandayligiga, to'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi qandayligiga qarab).
5. Suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir necha kecha-kunduzgacha).

Halokatli suv bosishning shikastlovchi omillari va parametrlari suv omborining o'lchamlariga, to'g'onning balandligiga, urib ketgan to'lqinning tezligi va balandligiga, er yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga bog'lik, bo'ladi.

Suv bosish zonasi - xududning GTIga tutash va suv tagida qolishi mumkin bo'lgan qismi.

Gidrotexnika inshootini muhofaza qilish choralarni:

1. GTI ni loyihalash va qurishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik
- 2 GTI dan to'g'ri foydalanish.
- 3 GTI dagi belgilangan tadbirlarni va ta'mirlash ishlarini vaqtida bajarish.
4. Qirg'oqni mahkamlash va inshoot tubini maxkamlash ishlarini o'tkazish.
5. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo'li bilan suvning maksimal zaxirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish.
6. Qo'shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish.
7. GTI ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida).
8. FVDT tarkibiga kiruvchi funksional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish.
9. GTI zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo'riqlash.
10. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo'lishi ehtimolini oldindan aytish taxminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish.

Aholini va xududlarni muhofaza qilish choralari:

1. Oldindan aytilgan to'g'ri taxminlarning doimo mavjud bo'lishi.
 2. Yaxshi yo'lga qo'yilgan axborot xizmatining bor bo'lishi.
 - 3- Doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo'lishi.
 - 4- GTI xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomliligi.
 - 5 Ehtimoli bor halokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favkulodda vaziyatdagi hatti-haratlarga tayyorgarlik ko'rganligi.
 6. FVDT raxbarlik tarkibining GTIda falokatlar xalokatlar oldini olish xamda bunday hodisalar ehtimoli paydo bo'lgandagi va sodir bo'lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko'rganligi (zamonaviy vositalar usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbqiq eta bilish).
 7. Muhofaza tadbirlarini bevosita o'tkazish:
 - GTI da avariya xavfi tug'ilgani haqida aholiga xabar berish;
 - suv ostida qolishi mumkin bo'lgan zonalardan aholini qishloq xo'jaligi hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
 - suv bosish extimoli bor zonadagi korxona, tashkilotlar, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to'xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish.
- GTI ni loyihalash va qurish prinsipi: GTI ni ular foydadan ko'ra ko'prok, zarar keltiradigan joylar, qurmaslik.

Yong'in chiqish, portlash xavfi bo'lgan ob'ektlardagi avariya va falokatlar.

Yong'in - bu nazorat qilib bo'lmaydigan hodisa bo'lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo'q, qiluvchi ofat, ayniqsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favkulodda vaziyatdir.

Yong'in va portlashlarning asosiy sabablari va turlari;

- yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e'tiborsizligi;
- elektr simlarining nosozligi;

- gaz, ko'mir, o'tin bilan isitiladigan vositalar;
- bolalarning o't bilan o'ynashlari;
- qasddan o't qo'yishlar;
- boshka sabablar.

Eng asosiysi shundaki, fuqarolarimizning o'zlari yong'in sababchisi bo'lib qolishadi. SHu sababdan ham shiorimiz; «Yong'inning oldini olmok, uni o'chirishdan afzalroqdir».

Yong'inning tez keng tus olishi sabablari:

1. Yong'inning sodir bo'lganligi omili;
2. yong'in sodir bulgan joylarda, yon-atrofning qizib ketishi.
3. Yong'inda yonayotgan jismlardan chiqayotgan tutun va zaharli moddalar.
4. Yong'in sodir bulgan joylarda va tevarak-atroflarda havo xaroratining o'zgarishi.

Bu yong'inning birlamchi keng tus olish omillari bo'lsa, ikkilamchisi:

1. Yong'in sodir bo'lgan bino devorining qulab tushishi.
2. Portlashlar sodir bo'lishi.
3. Yong'in sodir bo'lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof muhitga tarqalishi.
4. Yong'inni suv bilan o'chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi natijasida portlashlar yuz berishi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yong'inda nobud bo'lganlarning 60' 80% foizi nafas olish yo'llarining zaharlanishi yoki toza havoning etishmasligi okibatida halok bo'lar ekan.

Portlash - bu qisqa vaktning o'zida chegaralangan hajmdagi, katta mikdordagi quvvatning ajralib chiqishi.

Portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosimda sodir bo'ladi.

Portlashlar asosan yong'in va portlash xavfi tashkilotlarda sodir bo'lib, uning oqibatida yong'inlar kelib chikishi mumkin. Portlovchi moddalar saqlanadigan ombor ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar portlash xavfi tashkilotlar hisoblanib, ularda ma'lum sharoitlarda portlash sodir bo'lishi mumkin. Bularga mudofaa, neft

va maxsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi-saqlovchi, kimyoviy gaz, paxta, qog‘oz, non maxsulotlari, engil sanoat korxonalari ular ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni saqlovchi omborxonalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkilotlar kiradi.

O‘zbekiston hududida gaz bilan ta‘minlangan fuqarolarimizning uylarini nazarda tutmagan holda 500 dan ziyod portlash va yong‘in chiqish xavfi mavjud tashkilotlar bor.

Portlashning zarar etkazuvchi omillari;

- zarba mavji (zarba to‘lqinlari);
- siniq parchalarning sochilishi.

Bular birlamchi holatlar bo‘lsa, ikkilamchi portlashlar, yong‘inlar, falokatlar, kimyoviy va radiatsion shikastlanishlar, keng tusda to‘g‘onlarning buzilishi va suv toshqinlarining sodir etilishi, binolarning qulashidir.

Birlamchi shikastlanish omillari quyidagilardan

Zarba to‘lqinlari yuqori bosimdagi portlashdan bo‘lgan kuchli havo to‘lqinlarining kuchli ovoz chiqarib tarqaladigan havo to‘lqini tarzidagi zarba mavji qarshi kelgan qattik, jismlarning parchalanishiga va sochilishiga olib keladi.

Siniq parcha - maydonlarda parchalangan buyumlarni siniq parchalari tashkil etadi (yaqin atrofdagi korxonalar anjomlarning binolarning buzilishiga, parchalanishiga olib keladi).

Portlash - suyuqliklarning, portlovchi moddalarining kuch yoki issiqlik ta‘sirida o‘zi joylashgan hajmga sig‘may qolishi tufayli chiqishidir. Portlatuvchi omillar;

- kimyoviy (portlovchi moddalar);
- yadroli (yadroli qurollar);
- mexanik uslubdagi (yuqori bosimdagi suyuqliklarni quyuvchi-tarqatuvchi idishlarning yorilishi);
- elektromagnit (uchqun razryadi, lazer uchquni va b.);
- tovushli va boshqa quvvatlar.

Matbuotdagi chop etilgan ma‘lumotlar taxlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamiz hududida yiliga 15-17 dan ziyod portlashlar sodir bo‘ladi, asosan portlashlar aholi

yashaydigan xonadonlarda gazdan noto'g'ri foydalanish oqibatida sodir bo'ladi, bular xonadonlardagi portlashlar deyiladi.

Transport, energetika va kommunal tizimlardagi avariya va halokatlari. havo transporti avariya va halokatlari. O'zi bilan birga yo'lovchilarning, ekipaj a'zolarining halok bo'lishiga olib keladi, havo transportlarining portlashiga, yonishiga, buzilishiga, qolaversa er yuzidagi binolarning va boshqa XXO ning buzilishiga olib kelib, turli darajadagi qutqaruv, qidiruv va tezkor yordam olib borishga olib keladigan xolat.

Temir yo'l avariya va halokatlari.

Ushbu transport turida uchraydigan favqulodda vaziyatda yong'inlar-portlashlarga, yo'nalishdagi vagonlarning izdan chiqishiga, aholining, yo'lovchilarning nobud bo'lishiga vagonlarida davlat boyliklarining nobud bo'lishiga qolaversa, sodir etilgan joylardagi aholi va xududlar turli darajada zarar ko'rishiga, ayniqsa turli zaxarli modda yuklatilgan vagonlarda sodir etilganda xududlarning aholining zaxarlanishiga olib keluvchi holat.

Avtotransport avariya va halokatlari (shu jumladan, yo'l transport hodisalari).

Ko'rinishi:

Transportdagi fuqarolarning halok bo'lishiga, portlash va yong'inlarni chiqishiga olib keladi. Agarda yuk tashuvchi avtotransportlarda avariya holati sodir etilganida, turli neft, portlovchi modda yoki zaharlovchi moddalarning avariya sodir etilgan joylarda tarqalishiga hamda ushbu hududdagi aholining nobud bulishiga, zaharlanishiga, bino va inshootlarning buzilishiga olib keladi.

Metropoliten stansiyalarida ehtimol bo'lgan favqulodda vaziyatlar.

Fuqarolarning nobud bo'lishiga, turli xil tana jaroxatlari olishiga olib keladi, qolaversa portlash yong'inlar sodir etilishi mumkin. Metropoliten stansiyalari va vagonlarning buzilishiga olib keladi.

Magistral quvur tarmoqlarida, neft va gaz burg'ulash maydonlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va halokatlari.

Ko'rinishi:

Portlovchi moddalar bilan bog'lik, bo'lgan portlashlar yong'inlar, fuqarolarning halok bo'lishi, suyuqliklarni tarqalishiga, hududlar, inshootlar, binolarni buzilishiga olib keladi.

Ochiq turdagi neft va gaz konlari fontanlarining yonishi.

O'zbekiston hududida asosiy neft, gaz mahsulotlarini tarqatuvchi quvurlar ko'p, ular asosan er osti va usti qismlaridan o'tkazilgan.

Energetika tizimidagi avariyalar. Energetika tizimida sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlarga gidroelektrstansiya (GES)larida, issiqlik elektr markaz (TES)larida, shahar, tuman elektr tarmoqlarida (GRES)larida, elektr tarmoqlarida, Issiqlik markazlarida, issiqlik qozonlarida, kompressorlarda, gaz taqsimlash stansiya (GRS)larida va energetika tizimining boshqa ob'ektlarida sodir bo'ladigan avariya va halokatlar kiradi.

II-BOB. TA'LIM MUASSASALARIDA «FUQAROLAR HIMOYAASI» BO'LIMI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1. Fuqaro muhofazasi mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi

O'quvchilar bilan fuqarolar muxofazasi (FM) darslari o'quv guruhlarida tayanch umumta'lim maktablarida o'tkaziladi. FM kursini o'rganishda asosan 3 ta masala echiladi: shu predmet bo'yicha o'quvchilarda mustaxkam bilimlarni hosil qilish, ularga jamoa va individual himoya vositalaridan foydalanishni o'rgatish va bu ximoyalanish samarali ekanligi haqida ishonchni tarbiyalash. O'quv metodikasi va masalalarni kompleks echimlarini ta'minlashi kerak.

Darsning asosiy samaradorligi bu darsda o'quv ishini tashkil etish hisoblanadi. Bu asosan o'quvchini o'qituvchi qaramog'i ostida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi, Mavzuni qisqacha qilib tushuntirgandan so'ng ko'proq vaqtni o'quvchini yangi abzats va tushunchalarni o'zlashtirishga, FM bo'yicha dasliklar bilan ishlashga, o'quv kinofilmlar ko'pgina, masala, misollar echishga ajratish lozim.

O'quvchilarda ko'nikmalarni xosil qilish asosan amaliyot darslarda amalga oshiriladi. Ammo ma'ruza nazariya darslaridagi bilimlar xam amaliyotda qayta ishlanishi lozim, masalan, FM bo'yicha normativlar topshirish.

Darsni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'quv savollarini o'rgangandan so'ng nima qilishlarini aytish kerak (yozma konspekt, amaliy ishlari, qo'shimcha adabiyotlar). Bunday topshiriqlarni berilishi o'quvchilarni o'quv jarayonida faol qatnashishga turtki bo'ladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalarida band bo'lgan aholini tayarlash ish joylarida mashg'ulotlar o'tkazish va tavsiya qilingan dasturlarga muvofiq favqulodda vaziyatlarda harakat qilishda mustaqil ravishda o'rganish, keyinchalik o'quv mashqlarda va mashg'ulotlarda olingan bilimlar va malakalarni mustahkamlash yo'li bilan amalga oshiriladi, bu guruhga kiruvchilarni beshta guruhchalarga ajratish mumkin;

1. maktabgacha tarbiya muassalari tarbiyalanuvchilari:
2. umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari:
3. akademik litsey va kasb hunar kollajlari talabalari:
4. oliy o'quv yurtlari talabalari:
5. korxona, tashkilot, muassasalar ishchi va xizmatchilari.

Maktabgacha tarbiya muassasalari - Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasida bog'cha yoshidagi bolalarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish soxasida tayyorlash yo'lga qo'yilmagan. Bu muassasalarda bolalarga havfsizlikning oddiy elementlarini o'rgatib borish muhim hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari - O'zbekiston respublikasi kadrlarni tayyorlash milliy dasturi, ta'lim to'g'risidagi (23-avgust 1997 yil.) qonuniga muvofiq ta'lim muassasalarida fuqaro muxofazasi bo'yicha darslar olib borilishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirining 2000-yil 4-yanvardagi buyrug'iga asosan o'rta umum-ta'lim maktablarining 1-9-sinflarida Inson xavfsizligi asoslari kursi joriy etilgan. kursni o'qitishda asosiy e'tibor shaxsiy va jamoa xavfsizligi asoslarini o'rgatish, xavfli vaziyatlarni ko'ra bilish,

uni baholash hamda favqulodda vaziyatlarda uyda, ko'chada, jamoat transportida bajarilishi kerak bo'lgan xatti-harakatlarning o'rgatishga qaratiladi. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining o'quv rejasiga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bu mashg'ulotlarni olib borish uchun soatlar ajratilgan. 10-11sinflarda chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash 2005 yilda qabul qilingan (YOCHQBT) o'quv dasturi asosida fuqaro muhofazasi darslari 24 – soat hajmda olib boriladi.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlari - Akademik litseylar, ixtisoslashgan kollejlarning o'quvchilariga ta'lim berish maqsadida tashkiliy ko'rsatmalarga asosan fuqaro muhofazasi va hayot xavsizligi asoslari kursi kiritilishi lozim. Hozirgi kunda talabalar 2005 yilda qabul qilingan (YOCHQBT) o'quv dasturi asosida fuqaro muhofazasi darslari 24 – soat hajmda olib boriladi.

Oliy o'quv yurtlari - Universiteilar, institutlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim berish ishlari fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar Fani asosida 50-soat hajmda olib borish ko'zda tutilgan. Ta'lim berish jarayonida favqulodda vaziyatlarda boshqarish, xatti-harakat masalalariga hamda aholini xududlarni texrojen va tabiiy favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish usullarini o'rgatishga ahamiyat beriladi. Talabalarning diplom ishlari xalq xo'jaligi inshootlarini loyihalashga, ishlab chiqarish jarayoning texnologiyasi bilan bog'liq yoki ob'ektlarning mustahkamligini oshirish mavzularida bo'lsa, fuqaro muxofazasidan bo'lim, qism tariqasida berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Umum ta'lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, kasb hunar ta'limi o'quv yurtlarini o'quvchilarini, o'rta va oliy o'quv yurtlari talabalarini tayyorlash favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasidagi umumta'lim dasturiga muvofiq o'qish vaqtida amalga oshiriladi. Dasturlar O'zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda xalq ta'limi vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq xo'jaligi ob'ektlari - rahbarlari hamda mutaxxasislarni tayyorlash, ularga ta'lim berish O'zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan 2000-yili tasdiqlangan 40 va 80 soatlik dasturlar asosida

fuqaro muxofazasi institutida olib boriladi. rahbarlarga ta'lim berishda asosiy maqsad aholi va hududlarni favqulodda vazitlardan muhofaza qilishga tayyorlash, avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo'lganda uning oqibatlarini bartaraf etish, fuqaro muxofazasi kuch va vositalarini tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini o'rgatishdir. rahbar xodimlarni, tuzilmalar rahbarlari, tashkilotlar, muassasalar, korxonalarning avariya-qutqaruv otryadlari tarkibidagi xizmatchilarini, harbiylashtirilgan hamda doimiy tayyor maxsus tuzilmalarning xodimlariga fuqaro muxofazasidan ta'lim berish ishlariga favqulodda vaziyatlar boshqarmalariga qarashli xududiy rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlaridan hamda o'quv mashqlari va mashg'ulotlarda olib boriladi. Ta'lim berish jarayonida rahbarlarning fuqaro muhofazasidan o'z funksional vazifalarini o'zlashtirib olishlariga, havfli sharoitda muhitni tahlil qilish va baho berish, favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda xizmat lavozimidan kelib chiqqan holda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini berishga asosiy e'tibor beriladi.

Aholi tayyorgarligini amalga oshirishda o'qitish usullaridan bahs munozara, o'quv darsliklari bilan mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, mantiqiy masalalarni mustaqil echish usullaridan foydalanish mumkin.

Og'zaki o'qitish usuli (ma'ruza, hikoya). Insonlar o'rtasidagi eng soddamuloqat yo'llaridan biri – og'zaki nutq – og'zaki ta'rif yoki asosiy mazmunning og'zaki ifodasi hisoblanadi. Bu uslub butunlay «so'zlash» orqali amalga oshiriladigan o'qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o'qituvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi. Bunda asosan o'qituvchining eshitish qobiliyati ishga solinadi.

Tasviriy ifodalarni qo'llash usuli (illyustratsiya). Bu faoliyat orqali etkazilishi kerak bo'lgan bilim yoki malakalarni tasvirlovchi rasmlar orqali o'quvchilarning ko'rish qobiliyati ishga solinadi. O'quvchilarga etkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlar tasvirlab berish orqali, turli simvollar yordamida etkaziladi. Bunday tasviriy ifodalar quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: doska, maxsus oq doska, flipchart, video tasvir, video proektor, kodoskop,

kompyuter grafiklar, magnit taxta, rasmlar, suratlar, bo‘yoqli rasmlar, grafik va jadvallar, diagrammalar, namunaviy va maxsus shaffof qog‘ozga tushirilgan tasvirlar.

Namoyish etish usuli (demonstratsiya). O‘qituvchi ma’lum bir asbob yoki jixozdan foydalanish vazifasini yoki topshiriqqa aloqador harakatlarni namuna sifatida namoyish etib berishi mumkin. YAkka holda namoyish etish o‘quvchini ko‘rish qobiliyatidan foydalanishga undaydi.

Ma’ruza. Bu usul butunlay «so‘zlash» orqali amalga oshiriladigan o‘qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o‘quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi.

Ma’ruzachiga qo‘yiladigan talablar

Gavdani tutish: Tik, tinglovchilarga qaratilgan, erkin, ikki oyoqqa mahkam tayangan, boshi ko‘tarilgan, ammo burun ko‘tarilmagan holatda.

Qo‘llar: Bo‘sh holatda, ikki yonga osilib turgan yoki kamardan yuqorida ikki qul bir – biriga ulangan; kamardan yuqoridagi harakatlar, tasavvurli (ifodali) hatti – harakatlar – gapirish tezligida emas balki, sokin, asta, sekin va xotirjam.

Yuz: Tinglovchilarga qaratilgan, xotirjam.

Ko‘z qarashlari: Hadeb bir kishiga tikilmasdan, auditoriyadagi har bir kishiga 3-5 sekund davomida qarash samimiy.

Harakatlar: Maqsadga muvofiq tarzda bir joydan boshqa joyga o‘tish, «o‘tirib - turishlar» emas, xotirjamlik bilan yordamchi vositalarni qo‘lga olish va ishlatish, xotirjam harakatlar, onda – sonda tinglovchilar tomoniga o‘tish.

Ovoz: Tanaffuslar bilan (ayniqsa harakatlar paytida), sekin tezlikda va baland ovozda gapirish.

Bahs munozara usuli- o‘qituvchi yoki tinglovchilarning fikrlashni talab qiluvchi savollari bo‘yicha tinglovchi o‘z fikrlarini bayon qiladilar va o‘zgalar fikrini eshitadilar.

Muammoli vaziyatni yuzaga keltirish- vaziyat bir-oz tor tarzda bayon qilinadi. Bunday vaziyatlarni qo‘llash ko‘proq ma’ruza davomida qo‘llanib, o‘quv

jarayoniga muammoli o'qitish elementlarini kiritish imkoniyatini beradi. Tinglovchilardan o'zdiqqat e'tiborlarini ko'proq shu vaziyatga jalb qilishlarini va xulosa chiqarishlarini talab qiladi.

Ish o'yinlari – qandaydir ma'noda inson faoliyatini mashq qilishdan iborat. U deyarli barcha vaziyatlarni o'ynash va odamlar ruhiyatini tushinish, ularning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish imkonini beradi. Ish o'yinlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- auditoriya va qatnashchilarni tayyorlash;
- vaziyatni, yo'riqnoma va boshqa materiallarni o'rganib chiqish;
- o'yin jarayonini olib borish;
- o'yin natijalarini tahlil qilib, muhokama etish.

Miyaga hujum usuli- muammoni shakllantirish, mashq jarayoni, miyaga hujum- qo'yilgan muammoni engish, eng yaxshi g'oyalarni tanlab olish va natijalar to'qrisida xabar berish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Fuqaro muxofazasi boshqaruv organlarini, kuchlarini, FVDT mansabdor shaxslarni tayyorlash muvafaqqiyatli hal etilishi hamma pog'onadagi fuqaro muhofazasi boshliqlari uyushgan holda reja tuzishlariga, rejaning bajarilishiga uzluksiz rahbarlik qilishlariga, uni nazorat qilishlariga, shuningdek qo'l ostidagilariga yordam berishlariga, o'quv moddiy bazasining mavjudligiga, uning yaratilishiga, yaroqli holda turishiga, hamda muttasil takomillashtirib borilishiga bog'liq bo'ladi. Manna shu vazifalarni bajarish FVDT hamma rahbarlarini, fuqaro muxofazasi kuch va vositalarini, aholini barcha toifalarini tayyorlash bilan bog'liqdir. shuning uchun fuqaro muhofazasi bunday tayyorgarlik mazmunini, shakli va usullarini hozirgi zamon talblariga moslab, muntazam takomillashtirib borish kerak.

2.2. Nazorat darslarni o'tkazish va uni tashkil qilish metodikasi

"FVning tavsifi va klassifikatsiyasining mohiyati" mavzusi bo'yicha darsni o'tkazishda o'qituvchi jadval va noxarbiy tuzilmalarni tashkil etish sxemalaridan foydalanadi. So'z boshida o'quvchilarga O'zbekistonning tinchlikparvar siyosati FMni tashkil etilishi, davlatimizning g'amxo'rligi haqida gapirib o'tishi lozim.

SHu bilan birga O'zbekistonning jaxonni qurolsizlantirishdagi siyosati, Erdagi yadro qurollarini ko'paytirish musobaqasini to'xtatish lozimligini aytib o'tish lozim.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Vatanimizning asosiy ximoyasi bo'lsa, FM umumdavlat muhofaza tadbirlari tizimini tarkibiy qismi bo'lib, aholini zamonaviy qirg'in qurollaridan himoyani ta'minlaydi. Bundan so'ng FM ga aniqlik berib, uning masalalarini vazifalarini va olib borayotgan rolini aytib o'tish lozim.

Xalq xo'jaligi ob'ekti FMning tashkiliy tuzilmasi va noharbiy tuzilmalar jadval va qutqaruv komandasi sxemasi asosida ko'rib chiqiladi. O'quvchilarni ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo'jaligi ob'ektlari, o'quv yurtlarida noharbiy tuzilmalarning vazifalari haqida gapirish, "Boshlang'ich harbiy ta'lim" darsligida ko'rsatilgan tarmoq tuzilmalarini tanishtirish va bu tuzilmalar kimyoviy va tibbiy mulkga, texnika va aloqa vositalarga ega ekanligi haqida ma'lumot berish kerak. "FM xabar signallari, radioaktiv kimyoviy zararlanish va bakterologik shikastlanish o'choqlarida odamlar xarakati qoidalar" mavzusida o'qituvchi darsni FM signallarini tanishtirish bilan boshlaydi. Diafilmlar ko'rsatiladi. Tomosha (ko'rik)dan so'ng, kechki vaqt oralig'ida aholi katta ish bajarish lozimligi aytiladi, bu ishlar: nafas olish organlari va teri muxofazasi individual vositalarini olishi yoki o'zi qilishi, uy aptechkasini tayyorlash, himoya inshootlari joylashgan joyni aniqlash yoki uni qurilishida qatnanish, o'z uyida himoya choralarini ko'rishi, suv va oziq ovqat extiyojini ko'rish, o'z binosini himoya vositalariga tayyorlash va o't o'chiruv, epidemiya qarshi tadbirlarda faol ishtirok etish xisoblanadi.

Bundan so'ng o'quvchilarni bizning respublikamizda FM ning habar beruvchi signallari o'rnatilganligi haqida aytib o'tish lozim. bu signallar bilan tanishuvni "o'quvchilarni FM signallari bo'yicha xarakati" filmidan boshlash, so'ngra "havo trevogasi" signalida maktab va ko'chada o'zini tutish tartibi, hamda "havo trevogasi otboyi" signali haqida ma'lumot berishi kerak. So'zi oxirida rahbar har bir o'quvchi bu signallarda tez va o'quvli xarakat qilishi qilishi lozimligini aytib o'tishi kerak.

"Radiatsiya xavfi" signalida ham oldingi ikkita signaldagi kabi ko'rib chiqiladi. Bu erda "Radiatsiya xavfi"signali o'sha maydonda radioaktiv shikastlanish xavfi aniqlanganda berilishini aytib o'tish kerak.

Axolini radioaktiv shikastlangan maydonlarda o'zini tutish qoidalari jadvallarda juda yaxshi ko'rsatilgan. "Radiatsiya xavfi" signali maxalliy radiodan, yana ovoz va rang aloqa vositalari orqali beriladi. Bu signaldan so'ng shaxsiy ximoya vositalari kiritiladi xujjatlar olinadi, zarur narsalar, oziq ovqat va suv zapasi, shaxsiy aptechka olinadi, uyda chiroq, gaz, suv o'chirilib, oyna va eshiklar yopiladi va butun oila boshpanaga borishadi. So'ng dars raxbari jadvaldan foydalanib, axolini ximoya inshootlariga kelish tartibini tushuntiradi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga shuni ma'lum qilish kerakki, ximoya inshootlari yo'q bo'lgan joylarda boshpana bo'lib g'isht uylar, erto'lalar va boshqa chuqur joylar bo'lishi mumkin. Agar o'sha joyda (institut, uy, ishxona) qolishga majbur bo'linsa bunda darov joyni germetizatsiyasiga o'tish lozim. Buning uchun deraza va eshiklarni yopish teshiklarni berkitish, eshik ichidan qattiq mato bilan yopish lozim. Zararlangan maydonda shaxsiy aptechkadagi birinchi radioximoya vositasini ichish lozim. Boshpanadan chiqish faqat FM maxalliy shtampli ruxsati bilan mumkin.

Aholini kimyoviy shikastlangan maydondan xatti xarakati tartibi xam jadval yordamida qayta ishlanadi. Avval rasmda kimyoviy shikastlanish o'chog'ini va birlamchi va ikkilamchi shikastlanish xonalarini ko'rsatish lozim. "Kimyoviy trevoga" signali polyotida odamlar xarakati: protivogaz kiyish va boshqa teri ximoya vositalarini kiyish (bunday kiyim vositalar yo'qligida zich matoli ko'ylak, qo'lqop va rezinka etik) va ximoya inshootida berkinish lozim. SHikastilangan maydonda ishlayotgan yoki undan ketayotganlar uchun oldin shaxsiy aptechkadagi ximoya vositasini ichish kerak. Germetik moylangan inshootlardagilar o'z oldida shaxsiy ximoya vositalariga ega bo'lish uni kamendant buyrug'i bilan qo'llashga tayyor bo'lishi kerak. Nogermetik boshpanalarda odamlar nafas va teri ximoya vositalarini kiygan xolda o'tiradilar. Kimyoviy shikastlanish o'chog'idan chiqish

paytida shamolga perpendikulyar ravishda xarakatlanish kerak. O'choqdan chiqib to'liq sanitar ishlavda o'tish lozim. SHaxsiy vositalar, kiyim, poyafzal degozatsiya qilinadi. Baktereologik shikastlanish o'choqlarida ham xuddi shunday xarakat qilinadi. Oziq-ovqat va em xashak maxsulotlarini ximoyalash tadbirlarini ko'rib chiqish lozim: ular joylashgan binolarni germetizatsiya qilish, oziq ovqatlarni qopda, oyna yoki metal bankalarda , polietilen paketlarda saqlash va x.k. Qishloq xo'jaligi o'simliklarini muxofazasi quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi: tinchlik davrida chidamli o'simliklarni o'stirish: dori agroximiyaviy dori preparatlarini tayyorlash va zaxarli kimyoviy vositalarni zararkunanda kasalliklarga qarshi qo'llash. "Tabiiy ofat rayonlarida aholi xarakati" mavzusida raxbar tabiiy ofat va yirik ishlab chiqarish avariylariga ta'rif berib, ular katta zarar keltirish va axolini katta qismini talofat ko'rishiga olib kelishini ta'kidlaydi. So'ngra ogoxlantirish tartibi va unda aholixarakati tartibini tushuntiradi. Aholitabiiy ofat signalini bilishi, unga amal qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish, maxalliy boshqaruv organlarining axolini ximoyalash bo'yicha barcha ko'rsatmalarni bajarish shart. Bu erda asosiy fikrni tabiiy ofat oqibatini yo'q qilishda axolining rolga qaratish lozim. O'rmon va torf yong'inini o'chirishda birinchi bo'lib yong'in razvedkasi tashkil etiladi. va u yong'in chegarasi va yo'nalishlarini aniqlaydi. Razvedka ma'lumotlari asosida qaror qabul qilinadi va yong'in o'chog'ini o'chirish bo'yicha vazifalar qo'yiladi. Yirik o'rmon yong'inlarini o'chirishda o'rmon yong'in tuzilmalari, FM tuzilmalari, xarbiy qismlar, kerak bo'lsa maxalliy aholijalb qilinadi. O'rmon yongnlari suv va o't o'chiruvchi qorishmalar yordamida o'chiriladi. Torf yong'inlarida front oldidan chegaralar qo'yiladi, transheya va zovurlar qaziladi va vaqtinchalik vodoprovod truba quvurlari yong'in zonasiga o'tkaziladi.

So'ng raxbar zilzilada aholi xarakatini tushuntiradi. Zilzilada birinchi signallarni olgandan so'ng aholidarxol binoni tark etishi va bino qulamaydigan maydonga o'tib olishi kerak. vaqt bo'lsa gaz, issiqlik va elektr vositalari o'chiriladi. Zilzila oqibatlarini likvidatsiyasi paytida aholiuyumlarini yig'ishtirish, yo'qolgan va shikastlanganlarni qidirish, palatkalar qurishga, tibbiy

muassasalar, ovqatlanish punktlari va boshqa punktlarni qurilishida qatnashadi.

Keyinchalik axolini suv toshqin va sel paytidagi xarakati ko'rib chiqiladi. Bunda doimiy nazorat va tez xabar berish tizimi o'rnatiladi. Suv bosgan o'quv va ish binolari va korxonalar o'z faoliyatini to'xtatib, tezkor evakuatsiyani amalga oshiradi. Aholi ham uy hayvonlarini olib o'tishda, suzish vositalarini tayyorlash va remontida faol ishtirok etadi. Kutilmagan suv toshqinida pastdagi aholi yuqori etajlarga yoki cherdaklarga ko'tariladi va kerak bo'lsa suzish vositalaridan foydalanadi.

Toshqin maydonida odamlarni qidirish va qutqarish tezkor tashkil etiladi. Buning uchun vertoletlar, samoletlar, FMning turli suzish vositalari tuzilmalari va xarbiy qismlar jalb etiladi. Qutqaruv ishlari mobaynida qutqaruvchi so'zlariga qattiq bo'ysinish lozim. Qutqaruvchilar suzishni bilishi, qutqaruv jeletini kiygan bo'lishi, cho'kayotgan odamga yordam ko'rsatishni bilishi kerak.

2.3. Ta'lim muassasalarida «fuqarolar himoyaasi» bo'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda reja konspekt tuzish

Ushbu mavzudagi mashg'ulotga «Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik» dasturiga asosan 2 soat nazariy mashg'ulot belgilangan. Mashg'ulotni tashkil qilish va o'tkazish uchun men o'z pedagogik amaliyotim davrida qo'llagan quyidagi metodlarni tavsiya etaman.

Evakuatsiya ishlarini tashkil qilish va o'tkazish asoslarini o'rganish yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash maqsadida o'tkaziladigan chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik dasturining tarkibiy qismiga kiradi. U o'sib kelayotgan yosh avlodni (o'g'il-qizlarni) faqat urush davridagina emas, balki tinchlik davrida ham sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyat xolatlarida ham to'g'ri qaror qilish va harakatlanishga o'rgatadi.

Fuqarolar mudofaasi asoslarini o'rganish jarayonida o'qitishning tashkil qilinishi va mashg'ulotlar olib borishning metodikasi alohida o'rin tutadi.

O'qitishning tashkil qilinishi – bu o'quv jarayonining uslub va turlari hisoblanib, ular bilim berishga yo'naltirilgandir.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishning asosiy uslublariga (formalariga) quyidagilar kiradi:

- sinf xonasidagi nazariy mashg'ulotlar;
- amaliy mashg'ulotlar;
- amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar;

o'qitish metodikasi – bu o'quvchilarga bilim va amaliy ko'nikmalarni berish uslublari.

Asosiy metod – bu amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar, o'quv materialini bo'laklarga bo'lib o'rgatish, keyin esa to'la tarzda mashq qilishdir o'z navbatida amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar o'qituvchidan ko'p bilim, malaka va o'z ustida ishlashni talab etadi.

Har bir o'quvchi o'qib olishi kerakki, favqulodda vaziyat sodir bo'lish havfi tug'ilganda yoki u sodir bo'lganida o'quv yurtida olingan bilim, undan to'g'ri foydalanish katta talofat va qurbonning oldini oladi.

Mashg'ulotlarga tayyorlanish. Ushbu mavzuda mashg'ulotni o'tkazishdan oldin YOCHQBT o'qituvchisi o'zi yaxshi tayyorlangan bo'lishi kerak. Aslo avvalgi olingan bilimlarga asoslanib mashg'ulotga kirib bo'lmaydi. Mavjud bilim va tajribalarni takrorlab yodga olish, qo'shimcha yangilik va ma'lumotlar yig'ishi kerak bo'ladi.

YOCHQBT o'qituvchisining mashg'ulotga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Mashg'ulotning mavzusi va maqsadlarini o'qib olish.
2. Mashg'ulot mazmunini o'rganish.
3. Mavzuga bag'ishlangan qo'llanma, adabiyot, o'quv darsliklari va ko'rgazmali qurollarni o'rganish.
4. Mashg'ulotni olib borish tartibi, materialni o'quvchilarga etkazish ketma-ketligi va darsni moddiy boyitish hajmini aniqlab olish;

5. Mashg‘ulotni olib borish reja-konspektini tuzish;
6. Darsning moddiy ta‘minotini amalga oshirish;
7. Mashg‘ulot joyini qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qo‘yilgan talablarga javob beradigan tarzda tayyorlash.
8. Oldindan tayyorlanadigan o‘quvchilar bilan metodik-tavsiyaviy mashg‘ulot o‘tkazish.
9. Sinfdan tashqari ishlar va o‘quvchilarning mustaqil tayyorgarligini tashkil qilish.

Mashg‘ulotning moddiy ta‘minoti. O‘zini xurmat qilgan o‘qituvchi o‘quv yilini boshlashga tayyorgarlik ko‘rish jarayonidayoq yil davomida kerak bo‘ladigan ko‘rgazmali qurol, o‘quv darsliklari, diafilm, maketlar va boshqa narsalarni qidirib topadi, mavjudligini ta‘minlaydi, fanning moddiy ta‘minotini mustahamlash choralari qidiradi. Buning uchun otaliq tashkilotlari, harbiy qismlar, tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limlari va boshqa tashkilotlar bilan uzviy aloqa o‘rnatish zarur bo‘ladi. Mavzudagi mashg‘ulot uchun esa, darsdan oldin o‘qituvchi zarur diafilm va ko‘rgazmali yaxshi tayyorlangan bo‘lishi kerak. Aslo avvalgi olingan bilimlarga asoslanib mashg‘ulotga kirib bo‘lmaydi. Mavjud bilim va tajribalarni takrorlab yodga olish, qo‘shimcha yangilik va ma‘lumotlar yig‘ishi kerak bo‘ladi.

Qurollarni ko‘zdan kechirib chiqishi, mavjud texnik o‘qitish vositlarining texnik sozligini tekshirib qo‘yishi, sinf xonasini mashg‘ulotga tayyorlab qo‘yishi zarur.

Metodik tavsiyalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ushbu mavzudagi mashg‘ulot bir soatlik (45 daqiqa) nazariy dars jarayonida o‘rganiladi. Dars sinf xonasida o‘tkaziladi. o‘qituvchi darsni o‘quvchilarga soddaroq tarzda (tushunarli qilib), mavjud ko‘rgazmali qurollar, o‘quv materiallari, diafilmlar, Fuqaro muhofazasi Vazirligi tomonidan tayyorlangan kino (xujjatli, o‘quv) filmlardan keng

foydalangan xolda etkazishi kerak bo'ladi. Namunaviy reja – konspekt quyidagicha tayyorlanishi mumkin.

REJA–KONSPEKT

O'quv maqsadi: o'quvchilarga favqulodda vaziyat turlarini etkazish va ular sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki sodir bo'lgan xollarda harakatlanish tartib-qoidalarini tushuntirish. Evakuatsiya ishlarining tashkil qilinishi va bu ishlarning mohiyatini o'quvchilar chuqur anglab etishlariga erishish.

O'quvchilar tarkibi: o'quv sinfi (guruhi).

Vaqt: 45 daqiqa.

Mashg'ulotni o'tkazish joyi: o'quv sinfi (YOCHQBT xonasi).

Moddiy ta'minot: plakatlar, o'quv diafilmlari, tayyorlangan ko'rgazmali qurollar va boshqalar.

Tayyorlanish uchun qo'llanma va o'quv materiallari.

1. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muxofazasi to'g'risida» gi Qonuni – 26-may 2000 yil;
2. «Fuqaro mudofaasi» - V. X. Qurbonnazarov
3. «Fuqaro muhofazasi» - Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv darsligi

MASHG'ULOTNING BORISHI

Kirish	5 daqiqa	Mashg'ulot rahbari guruh navbatchisidan o'quvchilarning davomati va darsga kelishlari haqida ahborot qabul qiladi. o'quvchilarning davomati va ularning darsga tayyorgarligini tekshiradi.
Asosiy qism. 1-o'quv savoli. Evakuatsiya ishlarini tashkil etish	15-daqiqa	Mashg'ulot rahbari mashg'ulotning mavzusi, maqsadlarini e'lon qiladi, keyin esa evakuatsiya so'ziga tushuncha berib, u nima maqsadlarda, qanday sharoitlarda amalga oshirilishi va uning uslublari haqida tushuncha beradi.

va amalga oshirish, sel kelishi va ko‘chki bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylardan aholini ko‘chirish		<i>Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish (ko‘chirish)</i> – bu tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyat yuz bergan, harbiy harakatlar boshlangan hududlardan va favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli bor hududlardan aholini naqli,tda va piyoda tashkiliy tarzda olib chiqish hamda uni oldindan (favqulodda vaziyat manbaining shikaslantiruvchi omillarining ta’sir etish hududlaridan tashqarida) tayyorlab qo‘yilgan havfsiz joylarga vaqtincha joylashtirish tadbirlari majmuidir. Evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish hususiyatlari quyidagilarga qarab belgilanadi: - favqulodda vaziyat manbaining tavsifi (tusi); - favqulodda vaziyat manbaining ta’sir ko‘rsatish doirasi, vaqti (tavsiflari); - transportda (naqli,tda) va pi,da olib chiqiladigan aholining soni va qamrab olinishi; - transport (naqli,t) vositalarining mavjudligi va ularning imkoniyatlari; - evakuatsiya (aholini ko‘chirish) tadbirlarining o‘tkazish vaqti va shoshilinchligi. Evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish vaqti va muddatiga qarab, evakuatsiyaning 2 turini (variantini) ajratsa bo‘ladi: 1. Oldindan o‘tkaziladigan evakuatsiyalar. 2. SHoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) evakuatsiyalar. <i>Oldindan o‘tkaziladigan evakuatsiyalar</i> – favqulodda vaziyat havfi ehtimoli bor ob’ektlardagi falokatlar ,ki tabiiy ofatlar yuzaga kelishi va harbiy ishonchli ma’lumot olingandan keyin o‘tkaziladi. Bunga bir necha o‘n daqiqadan bir necha kecha-kunduzgacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir bo‘lishi mumkinligi haqidagi ma’lumot oldindan tahminlashga asos hisoblanadi. Bu tahminga shu muddat ichida aniqlik kiritilishi mumkin.
---	--	---

		Shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) evakuatsiyalar odamlarning ha,ti va salomatligiga havf tug‘iladigan darajada texnogen ,ki tabiiy tusdagi favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, ,ki harbiy harakatlar boshlanganda, aholinig risoladek kun kechirish sharoiti buzilgan taqdirda o‘tkaziladi. Favqulodda vaziyat rivojlana borishi va harbiy harakatlarning tavsifiga qarab favqulodda vaziyat yuzaga kelgan hududdan olib chiqiladigan, aholi soniga qarab, evakuatsiya 3 xilda bo‘ladi: 1.Cheklangan evakuatsiyalar, 2. Mahalliy evakuatsiyalar, 3. Mintaqaviy evakuatsiyalar. Cheklangan evakuatsiyalar favqulodda vaziyat manbai shikast etkazish omillarining ta’siri qishloq, aholi yashash joylari chegarasi ichidan chiqmay, ko‘chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmagan taqdirda o‘tkaziladi. Bunday holda ko‘chirilgan aholi, odatda favqulodda vaziyat hududiga tutash aholi yashash joylariga yoki shaharning shikastlanmagan tumanlariga (favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi omillari ta’sir doirasidan tashqariga) joylashtiriladi. Mahalliy evakuatsiyalar o‘rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari favqulodda vaziyat xududiga tushib qolgan hollarda o‘tkaziladi. Bunda ko‘chiriladigon aholi soni bir necha mingdan o‘n minglab kishigacha etishi mumkin bo‘lib, ular, odatda, favqulodda vaziyat hududi bilan ,ndosh havfsiz joylarga joylashtiriladi. Mintaqaviy evakuatsiyalar shikastlovchi omillar anchagina keng maydonga ,yilib, yirik shaharlarni ham o‘z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bitta ,ki bir necha mintaqa hududini qamrab olganda amalga oshiriladi. Mintaqaviy evakuatsiya favqulodda
--	--	---

		vaziyat yuz bergan xududdan transportda, pi,da olib chiqiladigan aholi o'zlarining doimiy yashab turgan joylaridan anchagina uzoqqa ko'chirilishlari mumkin. Favqulodda vaziyat ta'siri hududiga tushib qolgan aholining qanchasi evakuatsiya tadbirlari bilan qamrab olinganiga qarab, evakuatsiyaning ikki turi bo'lishi mumkin: 1. YAlpi evakuatsiya. 2. Qisman evakuatsiya. Yalpi evakuatsiya - favqulodda vaziyat yuz bergan hududdan barcha toifadagi aholi olib chiqilishini nazarda tutadi. Qisman evakuatsiya - favqulodda vaziyat yuz bergan hududdan mehnatga la,qatsiz aholi, maktabgacha ,shdagi bolalar, maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalarini olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi. Aholini evakuatsiya qilish usullariga qarab, evakuatsiyaning 3 turi bo'ladi: 1. transportda; 2. piyoda tartibda; 3. aralash usulda (transportlarda va piyoda). Aralash usul - yaxshi samara beruvchi va eng qulay usul hisoblanadi: u mavjud transportlar yordamida iloji boricha eng ko'p ishlovchilar bilan bir vaqtda aholining qolgan qismini ham birga qo'shib olib chiqishni nazarda tutadi. Bunda, asosan piyoda tartibda yura olmaydigan, yosh bolali ayollar, maktab o'quvchilari va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarining tarbiyalanuvchilarini transportlarda olib chiqish rejalashtiriladi. <i>Evakuatsiya ishlarini amalga oshirish, uni olib borish uslublari va turlari haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazar ekan, harbiy rahbar oldindan tayyorlab qo'yilgan ko'rgazmali qurol va o'quv</i>
--	--	--

	<i>materiallaridan, diafilmlardan unumli foydalana bilishi, o‘quvchilarga ular yaxshilab uqib olishlari uchun mavzuning asosiy joylarini ko‘rsatib o‘tadi. Keyin, aholini evakuatsiya qilishni uyushqoqlik bilan o‘tkazish maqsadida ta‘minotning turlari mavjudligi, ularsiz evakuatsiya ishlarini amalga oshirib bo‘lmasligini uqtiradi va ular haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi.</i> Ta‘minotning quyidagi turlari rejalashtiriladi va amalga oshiriladi: - tibbiyot; - jamoat tartibini saqlash; - transport; - yo‘l harakati havfsizligini ta‘minlash; - muxandislik; - moddiy – texnikaviy; - aloqa va habar berish; - kuzatuv ta‘minotlari. <i>Ikkinchi o‘quv savoliga o‘tar ekan, harbiy rahbar birinchi o‘quv savolini o‘quvchilar qay darajada uqib olganliklarini aniqlash maqsadida bir nechta savollar bilan murojaat qilishi maslahat beriladi. Ikkinchi o‘quv savolini yoritishda esa evakuatsiya ishlarini amalga oshirish uchun qanday guruhlar tuzilishi lozimligini ta‘kidlab o‘tadi.</i> Aholini evakuatsiya qilishni tashkil etilishini rejalashtirish va o‘tkazish bevosita shaharlar, tuman va viloyatlarning evakuatsiya tashkilotlariga, xokimiyat idoralariga, FV boshqarmalariga va bo‘limlariga yuklatiladi. Quyidagilar evakuatsiya tashkilotlari tarkibiga kiradi: - aholini evakuatsiya qilish xay’atlari; - evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish xay’atlari; - evakuatsiya qilingan aholini yig‘ilish punktlari;
--	--

2-o‘quv savoli. Evakuatsiya komissiyalarining, evakuatsiya qilinadiganlarni yig‘ish punktlari, transportlarga o‘tqazish va ulardan tushirish joylari, evakuatsiya qilinganlarni qabul qilish punktlarining maqsad va vazifalari, transportlardan foydalanish.	10- daqqa	- evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish punktlari; - evakuatsiyaning oraliq punktlari; - piyoda evakuatsiya qilinganlarni yo‘llarda boshqarish guruhleri; - ko‘chirilgan aholini naqliyotda (piyoda) olib chiqish tezkor guruhleri. Keyin ushbu xizmat turlari haqida qisqacha to‘htalib o‘tadi. Aholini ko‘chirish xay‘atlari. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimida ko‘rsatilganidek ishchilar, xizmatchilar va aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilishni rejalashtirilayotgan barcha xududlarda evakuatsiya xay‘atlari tashkil etiladi. Xududiy evakuatsiya xay‘atlari tarkibiga tegishli ma‘muriyat rahbarlari qarori bilan o‘sha ma‘muriy-xududiy bo‘linmalarining ma‘sul xodimlari kiritiladi. Evakuatsiya xay‘atining raisi etib, odatda, ma‘muriy-xududiy bo‘linma rahbarining (xokim) o‘rinbosari tayinlanadi. Evakuatsiya xay‘ati tarkibiga a‘zo etib, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ijtimoiy-ta‘minot idoralarining, transport tashkilotlarining ichki ishlar boshqarmasining (bo‘limlarining) rahbarlari (ularning o‘rinbosarlari), garnizon yoki tuman mudofaa ishlari bo‘limlarining vakillari tayinlanadi. Evakuatsiya xay‘atlarida ish yuritish va texnik ishlarni bajarish uchun xududiy boshqaruv idoralarining ma‘muriyat xodimlaridan ishchi guruhi tayinlanadi. Evakuatsiya xay‘atining ishchi guruhleri ish yo‘nalishlari bo‘yicha butlanadi hamda maxalliy sharoitni hisobga olib, bir necha tashkiliy guruhlardan iborat bo‘lishi ham mumkin. Bular, masalan: Naqliyotda va piyoda olib chiqiladigan aholini hisobga olish guruxi, evakuatsiya transport guruhi, evakuatsiya qilinayotgan aholini hisobga olish, qabul qilish va havfsiz joylarga
---	----------------------	---

	joylashtirish guruhi, evakuatsiya tadbirlarini ta'minlash guruhi va hokazo bo'lishi mumkin. Ob'ekt aholini evakuatsiya qilish xay'atiga odatda, korxona, muassasa, tashkilot boshlig'i (rahbar) ning o'rinbosarlaridan biri boshchilik qiladi. Ob'ekt evakuatsiya qilish xay'ati tarkibiga asosan xizmatchilarning (bo'limlarning) boshliqlari, sex boshliqlari yoki ularning o'rinbosarlari tayinlanadi. Favqulodda vaziyat yuz bergan xududlardan evakuatsiya qilinadigan aholini, moddiy va madaniy boyliklarni havfsiz joylarda bevosita qabul qilish, joylashtirish va ta'minot rejasini ishlab chiqish va bularni tashkil etish uchun evakuatsiya qilinganlarni qabul qilish xay'atlari tuziladi. o'zini o'zi boshqarish mahalliy tashkilotlari huzurida tuziladigan ko'chirilganlarni qabul qilish xay'atlari tarkibiga mahalliy ma'muriyat vakillari, shuningdek tashkiliy-huquqiy shakli qandayligidan qat'i nazar moddiy ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish korxonalari, birlashmalari, muassasalari, tashkilotlarining vakillari kiritiladi. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni, xalq xo'jalik ob'ektlarini evakuatsiya qilishda viloyat, tuman fuqaro muxofazasi ko'shinlarining ishtirok etishi yuqorida eslatilgan Qonunning 19 moddasida ko'zda tutilgan. Evakuatsiya qilingan aholini, moddiy va madaniy boyliklarni qabul qilish hay'atlarining FV yuz berganda aholini ko'chirishdagi tashkiliy tizilmasi va asosiy vazifalari namunasi keltirilgan. Aholini evakuatsiya qilish va ularni kabul qilish xay'atlari tegishli boshliklarga bevosita itoat etadilar xamda FV devoni (shtabi) bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. <i>Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish</i>
--	--

		joylari. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish joylari evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilishi va ro'yxatga olinishi, ko'chirish kolonnalarini (saf) va eshelonlarni tuzish, evakuatsiya qilinadigan aholini transportga chiqarish va havfsiz joylarga jo'natish uchun mo'ljallanadi. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish punkti — temir yo'l bekatlari, dengiz va dar, transportlarining to'xtash joylari, piyoda evakuatsiya qilinadiganlarning yo'llari yaqinida odamlar yig'ilishi uchun sharoit bor joylarda tashkil etiladi. evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish punkting soni va xizmat ko'rsatish imkoniyati ko'chirilayotgan aholi sonini, ko'chirilganlar o'tadigan yo'llari, naqliyotga chiqish bekatlari nechtaligini hamda ulardan avtomashina kolonnalari, eshelonlar, kemalar qanchalik tez jo'natilishini hisobga olib belgilanadi. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish punktini belgilashda har xil jamoat binolari va inshootlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish punktida yoki ularga bevosita yaqin joylarda harbiy harakatlar bo'layotgan paytda, yoki bunday harakatlarning bo'lishi mumkinligi ehtimoli bo'lganda aholini muhofaza qilish uchun mavjud muhofaza inshootlari (pana joylar, erto'lalar va boshqa vositalar) tayyorlab qo'yilib, eng oddiy yashirinish joylari sifatida muhofaza vositalari bilan jihozlanadi. Ko'chiriladigan aholining yig'ilish punktlari transportga chiqadigan bekat (joy) ning va piyoda tartibda evakuatsiya qilinuvchilar yo'llarining har biri yaqinida bittadan hisobida bir kecha — kunduzda 5 — 6 ta poezd jo'natishni yoki soatiga ikkita (har biri 500 kishidan) piyodalar safini butlash va tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etiladi. Bir vaqtda baravariga kamida bitta poezdga (kemaga) odamlar
--	--	---

		chiqishini yoki baravariga bir saf odam yig'ilishini ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Har qaysi evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish joyi (punkti)ga tartib raqami beriladi. Unga iqtisodiyot ob'ektlari, turar joydan foydalanish tashkilotlari, shuningdek aholini transportda olib chiqish va piyoda ko'chiriladiganlarning yo'llari, tashkil etiladigan transportga chiqish joylari birkitib qo'yiladi. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish joyining shahar, tuman, ob'ekt ko'chirish xay'atlari bilan, transportga chiqish joylari va transport tashkilotlari bilan to'g'ridan — to'g'ri aloqasi ta'minlangan bo'lishi kerak. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish joyi ishini ta'minlash uchun negizida evakuatsiya qilinadigan aholining yig'ilish joyining ish faoliyatini yo'lga qo'yiladigan hudud hokimiyat idoralari, tashkilotlari va muassasalari hodimlari xisobidan ishchi guruh tayinlanadi. Evakuatsiya qilingan aholini, moddiy va madaniy boyliklarni qabul qilish punktlari. Evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish punktlari evakuatsiya qilingan aholini moddiy va madaniy boyliklarni transportlardan tushiradigan joylarda yo'lga kuyiladi xamda shu aholini kutib olish va vaqtincha yashash joylariga junatishga mo'ljallangan bo'ladi. Odamlarni har qanday ob — havoda vaqtincha joylashtirishni, qish vaqtlarida esa isitish imkoniyatini ta'minlaydigan maktablar, klublar va boshqa jamoat va ma'muriy binolarida kuchirilgan aholini qabul qilish joylari yo'lga qo'yilishi mumkin. Evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish punktlariga qachon va qancha odam kelishiga qarab, ularni oziq—ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash nazarda tutiladi. Buning uchun doimiy umumiy ovqatlanish muassasa (oshxona, qahvaxona, choyxona va x.k.)
--	--	--

Yakuniy qism	10 daqqa	lardan, ular bo‘lmaganda esa ko‘chma ovqatlanish punktlaridan foydalanish mumkin. evakuatsiya qilinadigan aholining yig‘ilish punkti xodimlarining soni ko‘chirilib keltiriladigan aholi sonini hamda uni ta‘minlash tadbirlarining hajmi ,hisobga olib belgilanadi. Evakuatsiya qilinadigan aholining yig‘ilish punkti tashkiliy tuzilmasining hamda FV yuz berganda aholini, moddiy va madaniy boyliklarni ko‘chirish tadbirlarini o‘tkazayotganda evakuatsiya qilinadigan aholining yig‘ilish punkti ma‘muriyati bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qila. Aholini FV yuz bergan hududdan shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) ko‘chirish, tayyorgarlik ko‘rishga vaqt ajratilmasdan, evakuatsiya qilinadigan aholining yig‘ilish punktini yo‘lga qo‘ymasdan o‘tkaziladi. Ularning vazifalari bunday hollarda tegishli ma‘muriy —hududiy birliklar birkitib ko‘yiladigan tezkor guruhlariga yuklatiladi Mashg‘ulotga yakun yasar ekan, o‘qituvchi o‘quvchilarga bir nechta savollar bilan murojaat qilib ularning bilimlarini tekshiradi, uyga vazifalar beradi. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni ko‘rsatib o‘tadi.
---------------------	-------------	---

III- BOB. TAJRIBA- SINOV ISHLARI

3.1. Tajriba-sinov ishlarining nazariy mazmuni

Hozirgi kunda O'rta maxsus ta'lim oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgan jamiyatda bozor iqtisodiy munosabatlarga asoslangan yangi tizim yaratila boshlandi. Bunday sharoitda raqobat faqat ishlab chiqarish sohasiga ta'sir etib qolmay ijtimoiy xayotning barcha sohalariga shu jumladan ta'lim sohasiga ham kirib bormoqda. Jamiyatda yuqori salohiyatli, chuqur bilimga, mustaqil harakat etish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlash talab etilmoqda.

Bunday muammolarni hal etishning ko'p jihatidan ta'lim tarbiya jarayonida qo'llaniladigan texnologiyaga bog'liq.

Demak, ta'lim texnologiyalari pedagoglar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

Buning uchun eng avvalo pedagoglarda ta'lim texnologiyalari haqidagi tushunchalarini shakllantirish dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda.

“Fuqaro muhofazasi” fani darslarida o'qituvchilarni ta'lim texnologiyalari haqidagi tushunchalarni shakllantirishda samarali metod shakllarini izlab topish va amaliyotda keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg'ulotlarda, mavzular ustida munozaralar, baxslar o'tkazish, davra suhbatini uyushtirish orqali o'quvchilarning ongida ta'lim vositalari tafakkurini shakllantirish orqali Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash katta rol o'ynaydi.

O'quvchi yoshlarni ta'lim texnologiyalari orqali bilim va tushunchalarini shakllantirish asosida hamda to'plangan tajribalariga tayangan holda eng maqbul jihatlarini ularning ongiga singdirib borish joizdir.

Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha ta'lim texnologiyalari orqali mashg'ulotlarni talab doirasida olib borishda, pedagogik-texnologiyaning o'ziga xos muayyan qoidalari, qonuniyatlari, tomonlari tizimi, izchillik vositalari, omillari

hamda pedagogik shart-sharoitlaridan keng foydalanish maqsadga erishishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba jarayonida Fuqaro muhofazasi fanini o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini joriy etish pedagogik-texnologiyaning mexanizmlariga amal qilish va ulardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba ishlarini olib borish jarayonida amin bo'ldikki, CHQBTni o'quv jarayonida ta'lim texnologiyalarini joriy etilishi chaqqiqqacha bo'lgan o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish orqali ularda texnik-tafakkurini rivojlantirish ayni muddaodir.

Shuningdek, o'quvchilarni Fuqaro muhofazasi fani haqidagi tushunchalarini shakllantirishning har xil og'zaki, yozma, ijodiy va texnik masalalarini echishda olttirgan tajribalari ta'lim-tarbiyaning hal qiluvchi omili ekanligi aniqlandi.

Toshkent soliq kollejida tajriba sinov ishlari o'tgazildi uquvchilarni texnik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mavzularda ma'ruza, suhbat, bahs-munozara, davra suhbatlari, muloqot, munosabat, burch, mavzuga oid ko'rsatuvlar va tadbirlar olib borildi. Bunday tadbirlarda o'quvchilarning ishtiroki ta'minlandi.

Fuqaro muhofazasi fani mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilib dars o'tildi. O'tkazilgan mashg'ulotlarning tahlili natijasida tajriba guruhlarida tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, nazorat guruhlarida esa an'anaviy mashg'ulotlardan foydalangan holda dars olib borildi.

Tajriba natijalarini qayta ishlashda o'qitishning samaradorlik mezonini sifatida quyidagi ko'rsatkichlarga asoslandik.

Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirishlarini taqsimlash maqsadida guruhlarda o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati quyidagicha olindi: Tajriba va nazorat guruhlarida X H bittadan guruhlar tanlanib, ularda mashg'ulotlar olib borildi va ularning natijalari quyidagicha bo'ldi. Tajriba guruhida 24 ta o'quvchi va nazorat guruhida 23 ta o'quvchi qatnashib, ularning bahosini o'rtacha qiymati

mos ravishda XT $\square 4,29$ va X H $\square 3,74$ natijani berdi. Samaradorlikni baholovchi qiymat esa 1,15 ni ko'rsatdi.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, fukaro muhofazasi fani darslarida ta'lim texnologiyalarni joriy etib dars o'tish o'qitish samaradorligini oshirar ekan.

Tadqiqot ishimizdan ko'rinib turibdiki, "Fuqaro muhofazasi" mashg'ulotlariga ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullari" mavzusi bo'yicha bilim darajasi tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 15 % ga yuqori bo'ldi.

Uslubiy ishlarni olib borish jarayonida ancha yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu borada uslubiy ishlar o'rganilib, ta'lim-tarbiya orqali o'quvchilarni o'qitishda kompyuter vositalari haqidagi tushunchalarning muhim jihatlari ilmiy-amaliy usullarda o'rganildi.

Demak, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish jarayonida tajriba guruhi qilib belgilangan o'quvchilar bilan tajriba ishlari olib borildi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarga ta'lim texnologiyalardan foydalanib Fukaro muhofazasi mashg'ulotlariga ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullari mavzusini tashkil etilsa ularda ushbu mavzu bo'yicha tushunchalarini shakllantirish va tafakkurini rivojlantirishga erishilar ekan.

Shuningdek, ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va o'рни haqidagi tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'quv yurtlariga hamda talim muassasalariga sayohat uyushtirildi.

Ta'lim texnologiyalarining mashg'ulotlardagi o'рни va ahamiyatini bilish maqsadida CHQBT o'qituvchilari taklif etildi. Ular bilan pedagogik suxbat ishlari olib borildi.

Suxbat va co'rov ishlari olib borish jarayonida Ta'lim texnologiyalariga oid tushunchalar aniqlandi.

3.2. Tajriba sinov ishlarining tahlili

Ta'lim muassasasida tajriba sinovga ikita gurux ya'ni, tajriba guruhi va nazorat guruhi jalb qilindi. Tajriba guruhiga CHQBT "Fuqaro muhofazasi" mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanib mavzu yoritilib berildi. Nazorat guruhiga ushbu mavzu bo'yicha ananaviy usulda mavzu yoritilib berildi. Ushbu mavzuni o'zlashtirish bo'yicha guruxlarda so'rov o'tgazildi. Savollarga belgilangan javoblar 5 ball tizimi asosida baholandi. Ball tizimi asosida baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'qituvchilarning javoblari ball bo'yicha baholandi.

Tushunchalar ta'rifi aniq va eng muhim xossalar ifodalangan. Javoblar 5 ball, tushunchalarning taklifi muhim xossalar bilan ifodalib, ammo javob qisqa bo'lsa "4" ball, tushunchalar tushunarli, ammo ta'rifning muhim xususiyatlari aniq bayon etilmaganligiga "3" ball deb belgilanadi.

Mavzuni o'zlashtirish darajasi bo'yicha o'quvchilarning bergan javoblari quyidagicha so'rovnomada tadqiqot oxirida olingan javobda tajriba guruhida yuqori ball 40% ni ko'rsatdi.

Nazorat guhida esa 25% ni ko'rsatdi yoki mavzuni o'zlashtirish darajasi asosida olingan javoblarda tajriba guruhi 35% yuqori ball, nazorat guruhi 22% yuqori ball yig'ishdi. SHu tarzda berilgan tushunchalar (tushunchalar ilova qilindi Jadval-1) bo'yicha olingan ma'lumotlar to'plandi va javoblar asosida tayyorlab berildi.

Jadval-1

Guruhlar	Tadqiqot boshida (olingan javoblar foiz hisobida)			Tadqiqot oxirida (olingan javoblar foiz hisobida)		
	Past	O'rta	Yuqori	Past	O'rta	Yuqori
Tajriba guruhi	8	7	8	3	7	13
Nazorat guruhi	7	10	6	5	7	10

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhida olingan javoblar nisbati ijobiy tomonga o‘sdi.

Tajriba-sinov ishlarining tahliliga ko‘ra o‘quvchilarga ta’limni zamonaviy texnik vositalaridan foydalanib Fukaro muhofazasi mashg‘ulotlarini tashkil etilishida CHQBT o‘qituvchilarning bu borada tushunchalar sifatlarining ancha qismi ularda shakllangan bo‘lishiga qaramasdan bu borada tegishli kamchilik borligi aniqlandi. SHunga ko‘ra o‘quvchilar ma’lum bir tizimga solingan an’anaviy va noa’anaviy usulda o‘qitilsa bu albatta yuqori ko‘rsatkichlarga erishishiga yordam berishi mumkin.

Biz tadqiqot jarayonida ta’limni zamonaviy texnik vositalariga oid tushunchalarni shakllantirishni pedagogik-texnologiya talablari asosida o‘rgandik hamda shuning asosida tadqiqot ishini olib bordik. Olingan natijalar o‘quvchilarda mavzuga oid tushunchalarning ortgani va bu bilan vatan ximoyachisi degan tuyg‘ularini shakllantirilgani aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot ishining aniq maqsad asosida tashkil etilganligi va bu maqsadni amalga oshirishga yangicha yondashuv ta’lim-tarbiya mazmunini pedagogik-texnologiya tamoyillari bilan boyitilganligi va uni izchil tizimli tashkil etilishi mazkur muammoni ijobiy hal etilishini ta’minladi.

XULOSA

Fan va texnikaning keng rivojlanishi xalq xo'jaligida ham inson hayoti uchun havfli bo'lgan zaharli moddalardan (xlor, ammiak kabi), yadro reaktorlaridan tinchlik yo'lida foydalanish imkonini berdi. Lekin bulardan foydalanishda inson omili rol o'ynar ekan, hamma vaqt ham bexato ish bo'lavermasligining isbotini ko'plab keltirish mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida 1985 yilda Ukrainaning Chernobil shahridagi atom elektrostansiyasi reaktorlarining biri ishdan chiqqani va atmosferaga katta miqdorda radiatsiyaning tarqalishi oqibatida minglab odamlar qurbon bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz.

Ushbu vazifalarni bajarish birgina vazirlik va uning tasarrufidagi tarmoq, tashkilotlarining yagona vazifasi bo'lmay, mazkur hayrli ishda Respublikada mavjud bo'lgan barcha vazirlik va idoralar o'z faoliyati doirasida salmoqli ulush qo'shishlari shart. SHu bois, xukumatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi (1997 yil). Mazkur qarorda har bir vazirlik, idora, tashkilot uchun o'z yo'nalishi bo'yicha aniq funksiyalar belgilab qo'yilgan. Eng muhimi, har bir rahbardan to kichik xodimgacha shu vazifalarni anglash, to'g'ri tushuntirish, ularni ijrosini ta'minlash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda favqulodda vaziyatlarning turli, tasnifi va tarqalish holatlari bilan bir qatorda, avvalo ular bilan bog'liq bo'lgan asosiy atamalar, tushunchalarning mazmuni, mohiyatini hamda shu sohaning huquqiy ma'yoriy hujjatlarini to'g'ri anglab unga amal qilish fuqarolarning muqaddas burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muxofazasi to'g'risida» gi Qonuni – 26-may 2000 yil;
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 2002. – №11. – 287 b.
5. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majbariyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 436-11-son. 2002.
6. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
7. «Fuqaro mudofaasi» - V. X. Qurbonnazarov
8. «Harbiy toksikologiya va tibbiy muxofaza», - I. I. Mamatov
9. «Grajdanskaya oborona» - G. Atamanyuk
10. «Grajdanskaya oborona» - A. Kostrov
11. «Fuqaro muhofazasi» - Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv darsligi
12. Fuqarolar muhofazasi fanidan ma'ruza matnlari – TDPU, harbiy kafedra.
13. Rossiya Federatsiyasining «Grajdanskaya Oborona», - deb nomlangan oynomasi 2001-2002 yildagi materiallari.
14. Azizxo'jaeva.N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: 2003.
15. Begimkulov U. SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007 y.

16. Bospalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. M.: Pedagogika 1989g.
17. Yoʻldoshev J. Gʻ. Yangi pedagogik texnologiya: yoʻnalishlari, muammolari, echimlari. – Xalq taʼlimi jurnali, 1999, №4.
18. Klarin V.M. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: Znanie 1989g.
19. Maxkamov U., Tilabova N., Tilaboeva SH. Pedagogik maxorat. T.: 2003.
20. Monaxov V.M. Aksiomaticheskiy podxod k proektirovaniyu ped. texnologii. Pedagogika. 1997g. №6.
21. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi Nasaf, 2000.
22. Caidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent “Moliya”- 2003.